



**O'ZBEK XALQ NAQQOSHCHILIGIDA NAMOYON
KOMPOZITSIYASINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

Xolbekova O'g'iloy Isroil qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti. O'zbekiston

O'qituvchi ugiloy.kholbekova@inbox.ru +998507479713

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, kreativlik, kompetensiya, san'at tarixi, multimedia, grafika dizayni, milliy naqsh, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kun bolalari kelajakda turli xil kasb egalari jumladan, xoh dizayn-konstruktor, muhandis, xoh shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis bo'lsin, ular biron-bir sohani yaratuvchilari bo'ladilar. Qaysi soha vakillari bo'lishlaridan qat'iy nazar har bir kasb uchun rasm chiza olishlari hamda undan foydalana olishlari lozim bo'ladi. Hattoki hozirgi kunda uy bekalari ham rasmni ko'rib tushuna olishlari bugungi zamonnинг eng zaruriyatiga aylaninib bormoqda. Hozirgi davrda har bir kishi turli xil ko'rinishdagi texnikalar bilan shug'ullanishga, oddiy dazmol, tikuv mashinalari, televizor-radio, kir yuvish mashinalari, muzlatgich, elektr plitalar va hozalar kabi yuzlab minglab texnik buyumlar bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi. Ularga asbob-texnika vositalarini ishlatish hamda ularni sozlash uchun grafik bilim va malakalar juda zarur. Shuning uchun ham har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlar ustida ishlashni bilishi darkor.

Bugungi kunda har bir kishi grafik bilimga ega bo'lishi uning o'zi uchun ham, jamiyatimiz uchun ham suv va havodek zarur bo'lmoqda. Shunga ko'ra mashhur fransuz faylasufi Didro qariyb bundan 300 yillar oldinroq, - "Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o'qish-yozish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda ham qoldiradi" – degan edi.



Tarixdan ma'lumki, dunyoga mashhur yozuvchilar, shoirlar, geograflar, tarixchi, adabiyotchilar, konstruktorlar va boshqa soha alloma-mutafakkirlari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar. Bulardan Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluso-Maklay, Mendeleyev, Botir Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug'ullanib kelganlar. Har bir soha ijodkorlari uchun rasm chizishni bilish ularga ulkan ijodiy imkoniyatlar hamda madaniy-ma'naviy ozuqa beradi.

Yuqoridagi misollardan xulosa qilib aytganda tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish bolalarning kelajak hayotida juda katta ahamiyat kasb etadi, ularning shaxs sifatida shakllanishlarida, yuqori salohiyatli, yetuk kadrlar bo'lishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi

Rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistonda ham o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilgan. Ularda rasm ishlashga o'rgatishda tabiatni, butun borliqni o'rganishga, unda go'zalliklami idrok etishga alohida e'tibor berilgan. Rasm ishlash uchun yog'och taxta ustiga asalari mo'mi surtilgan va uning ustini bo'yoq bilan sidirg'a bo'yagan. Rasm ana shu yuza ustiga o'tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Noto'g'ri chizilgan rasm qo'li bilan ishqalanib, chiziqlar. So'ngra tekis yuzaga yangi rasm ishlangan. Eramizdan avvalgi 432-yilda yunon haykaltaroshi Poliklet inson tanasi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik, proporsionallikka doir namuna sifatida «Dorifor» haykalini yaratdi. Keyinchalik u barcha maxsus badiiy va badiiy bo'limagan maktablarda o'rgatildi. Yunon rassomlari borliqni va turmushdagi go'zalliklarni kuzatish asosida tasvirlashni qonun va qoidalarini ishlab chiqqanlar. Kelajakda ushbu yondashuv asosida metodik qo'llanmalar, onlayn platformalar va milliy dizayn resurslarini jamlagan o'quv kontentlar yaratish ta'limda raqamli bezak darslarini tizimli ravishda joriy etish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida o'zbek milliy san'atining zamonaviy talqinda rivojlanishiga va yosh avlod orasida uni qadrlash hissining kuchayishiga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, amaliy bezak darslarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish – bu nafaqat pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish,



balki yosh avlodni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish, ularning ijodiy qobiliyatini kuchaytirish va milliy qadriyatlarimizni yangi shaklda targ'ib qilish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar: Ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning o'zi faol ishtirok etsagina uning tug'ma layoqati uyg'onadi, qobiliyatlarini asta-sekinlik bilan o'stira boshlaydi. Agar kishi o'z ishini sevsan, uning xuddi shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqishni boshlaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni.O'RQ-637-son. // www.lex.uz
2. Суюнов, Н. (2024). Tez qalamchizgilarda kompozitsiyalar yaratish texnikasi. *Общество и инновации*, 5(9/S), 19-25.
3. Суюнов, Н. (2024). Tez qalamchizgilar orqali badiiy tafakkurni rivojlantirish metodikasining zamonaviy yondashuvlari. *Общество и инновации*, 5(8/S), 274-278.
4. Халилов, Л. (2024). Rangtasvir mashg'ulotlari orqali talabalarning ijodiy qibiliyatlarini oshirishning ilmiy nazariy asoslari. *Общество и инновации*, 5(9/S), 26-31.